

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNI TAYYORLASH
JARAYONIDA KOMMUNIKATIV
QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK MODELI**

Sattorova Malikaxon Abdug`affor qizi

Qarshi Xalqaro Universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo`lajak tarbiyachilarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish, bo`lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik modeli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: kommunikativlik, kompetensiya, tarbiyachi, model, rejalashtirish, amaliyot, natija, kuzatish, natijalarni tahlil qilish

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическая модель развития коммуникативных способностей, формирования коммуникативных способностей будущих воспитателей.

Ключевые слова: коммуникация, компетентность, педагог, модель, планирование, практика, результат, наблюдение, анализ результатов.

Abstract: This article discusses a pedagogical model for the development of communicative abilities, the formation of communicative abilities of future educators.

Key words: communication, competence, teacher, model, planning, practice, result, observation, analysis of results.

Zamonaviy ta'lim tizimi qo'yayotgan talablar ham fan va ta'lim bilan birgalikda oshib borayapti. Bu esa malakali, bilimli, layoqatli, intiluvchan, izlanuvchan, fikrlarini erkin bayon eta oladigan, o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashadigan, o'zini va o'zgarlar shaxsiyatini xurmat qiladigan, keng ma'noda ko'plab ijobiy qirralarga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyoj ortishiga sabab bo'ladi. Jamiyatning bu ehtiyojini qondirish esa kadrlarni ishlab chiqaruvchi oliy ta'lim muassasasining pedagog

hodimlariga yuklanadi. Chunki bo'lajak tarbiyachilar ning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishdagi asosiy rol ishtirokchilari aynan pedagoglardir. Bu vazifani bajarishda ular bir qator nazariy bilimlarga asoslanib ish ko'radilar.

Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga o'tish sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- jamiyatda o'zgarishlarning intensivligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi;
- ijtimoiy va kasbiy axborot oqimining uzluksiz o'sib borishi;
- shaxs talablari hamda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni modernizatsiyalash vazifalari;
- zamonaviy odam, mutaxassisning hayotiy faoliyati davomida turli topshiriqlarni hal etishga nisbatan faollik, mustaqillik, tayyorligiga nisbatan talab ortganligi.

Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish usullari, yo'llari va vositalarini ishlab chiqishdan avval, kommunikativ qobiliyatning tuzilishi va tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish lozim. Ko'plab pedagog olimlar olib borgan tadqiqot ishlarida kommunikativ qobiliyatning tuzilishi va qanday komponentlarga ega ekanligini tavsiflab o'tishgan.

E.G.Islomgaliyev kommunikativ qobiliyat tushunchasini to'ldirib turuvchi uchta muhim komponentini ajratib ko'rsatadi.

1. Bilimning professionalligi.
2. Muloqotchanlik
3. O'z-o'zini takomillashtirish.

Bu muhim komponentlar bir birini to'ldirib turadi va kommunikativ qobiliyatga erishish uchun yetakchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari E.G.Islomgaliyev kommunikativ qobiliyatni shakllantirishda eng muhim

jiyat- o'qitish tizimining sifatli tuzilishi ekanligini ko'rsatib o'tadi. Bu jarayonda, bo'lajak tarbiyachi va tarbiyachilarga ta'lim-tarbiya berish kasbiy darajada amalga oshirilsagina, ko'proq muvaffaqiyatga erishish mumkinligini aytadi.


Adolfning fikriga ko'ra, kommunikativ qobiliyatga mutaxassislar tayyorlashda, kasbiy kompetentlik tuzilmasini bilish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ular quyidagilar:

- Kognitiv faoliyat tuzilmasi;
- Kognitiv faoliyat turlariga bo'lgan ehtiyoj va o'ziga xoslik;
- Ta'lim jarayonini rivojlantirish;
- Shaxsni o'rab turgan voqelikni ilmiy bilimlarda aks etishi;
- Malakali shaxsni rivojlantirish zarurati (qobiliyat, qiziqish, moyillik va shaxsiy fazilat);

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi komponentlik tuzilmasining tarkibiy qismlarini bir-biridan ustun qo'ymaslik lozim. Qachonki ular talabalar kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda kompleks tarzda qo'llanilsagina professionallikka erishish mumkin.

O'z-o'zini rivojlantirish kommunikativ qobiliyatning eng muhim tarkibiy qismidir.

Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi:



Pedagogning kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

O'zini o'zi tahlil qilish – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O'zini o'zi baholash – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishidir.

Bir qator omillar mutaxassis yoki shaxsning o'zini o'zi samarali baholashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

Muhim omillar

- O'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish)
- Shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash)
- O'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi)

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'zini o'zi oshirib yoki pasaytirib ko'rsatish o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

O'z-o'zini baholashda kuzatish muhim ahamiyatga ega. Bizga ma'limki kuzatuv jarayonining 2 turi farqlanadi: tashqi kuzatuv va ichki kuzatuv.

Bo'lajak tarbiyachilar ta'lim olish jarayonida shaxsiy xato va kamchiliklarini ichki kuzatuv asosida tahlil qilishadi. Ichki kuzatuv - bu

shaxsning o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki xodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir. Tashqi kuzatuv-mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. Tashqi kuzatuv asosida bo'lajak tarbiyachilar ya'ni bir so'z bilan aytganda talabalar, o'z tengdoshlarining va ustozlarining faoliyatlarini kuzatadilar. Samarali tajribalarni o'z faoliyatlarida qo'llashda foydalanadilar, natija bermaganlarini esa aksincha. Bu jarayonda amaliyot muhim hisoblanadi, chunki, nazariy kuzatuv va bilimlar amaliyot jarayonidagina o'z tasdig'ini topa oladi. Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy maqsadi ham aynan, ular kasbiy faoliyatda hech qanday to'siqlarga uchramasliklarini, tarbiyachilarga ta'lim-tarbiya berishda oqsamasliklarini ta'minlashdan iborat.


Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish modeli ham bundan mustasno emas. Model bilan tanishishdan avval, model tushunchasining mazmun mohiyatini bilish maqsadga muvofiqdir.

Model (lot. "Modulus" – o'lchov, me'yor) biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Demak, model- bu o'rganilayotgan hodisa, obyekt yoki jarayonning eng muhim xususiyatini aks ettiruvchi ba'zi bir obyektidir. Bu tushuncha dastlab mexanikada paydo bo'ldi. Ta'lim sohasida esa ko'proq aniq fanlarda (matematika, fizika, informatika) ishlatiladi. Hozirgi kunda esa, nafaqat aniq fanlar balki, ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham ishlatilib, o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Bir necha yillar davomida talabalar kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish ustida ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Va bu tadqiqotlar natijasida eng samarali model yaratildi. Pedagogik modelni yaratishda kommunikativ qobiliyatning tarkibiy qismlaridan foydalanilgan. Bu

model Tomas Olsson va Roxa tomonidan yaratilgan bo'lib, bir qancha nazariyalarga asoslanadi. Modelda pedagogning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishning 4 ta muhim xususiyati ko'rsatilgan. Ular bir- birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Model yordamida bo'lajak pedagoglar faqatgina muayyan mutaxassis darajasiga ega bo'libgina qolmasdan, balki o'z sohalari bo'yicha rivojlanish jihatiga urg'u beradilar. Pedagogik kompetensiyaga ega bo'lish uchun doimiy muvozanatdagi holatdan, doimiy izlanish va harakatdagi holatga o'tadilar.



Kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish modeli.

Modelning negizida kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishning to'rtta muhim xususiyati yotadi:

1. Rejalashtirish – barcha turdagi pedagogik faoliyat turi jamlanmasi.
2. Nazariya – nazariy o'qitish va talabalarga o'rganish sohalari bo'yicha bilim berish.
3. Amaliyot – talabalar bilim olishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab o'qitish faoliyati.
4. Kuzatish – talabalar bilim olishini kuzatish.


Rejalashtirish – kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, o'qitish tizimining yuqori sifatini rejalashtirish va yangi g'oyalarni amalga oshirishning dastlabki pog'onasidir. Bunda talabalarga qay tartibda va qay tarzda bilim berish rejali o'quv dasturiga kiritiladi. Dars mashg'ulotlaridagi mavzuga oid metodikalar pedagog tomonidan tanlanadi.

Nazariya – professionallikka qo'yilgan dastlabki qadam asosida nazariy bilim yotadi. Avvalo talabalarni muayyan fan yoki fan sohasini o'qitish nazariyasiga tegishli bo'lgan pedagogik bilimlar bilan tanishtiriladi. Bunda talabalarga ta'lim berish inklyuziv tarzda amalga oshiriladi ya'ni talabalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga pedagogika va psixologiya fanlari chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi. Chunki, ular jamiyatimizning eng yosh va eng nozik qatlamiga ta'lim va tarbiya berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan. Ertangi faoliyat uchun, bugun berilayotgan ta'lim sifatli bo'lishi kerak. Bundan tashqari berilayotgan bilimlar ilmiy jihatdan o'z isbotini topgan bo'lishi va zamonaviy ta'lim tizimiga mos bo'lishi lozim.

Amaliyot – pedagogik amaliyot talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning ajralmas qismi bo'lib, ma'ruza, eksperimental ish, ekskursiya, nazorat va baholash kabi o'qitishning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Pedagogik amaliyot doirasida o'qituvchilar o'qitish orqali talabalarning bilim olishini faol qo'llab – quvvatlaydi. Amaliyot jarayonining yuqori sifatini ishlab chiqish shu bosqichda amalga oshiriladi va nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etiladi. Bunda talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

Kuzatish – pedagogika sohasining ajralmas qismidir. Agarda pedagog o'qitish samaradorligini oshirishni istasa, o'zining va talabalarning xatti – xarakatlarini, bilim olish faoliyatini, amaliy faoliyatidagi natijalarini shaxsiy jihatdan kuzatishi muhimdir. O'qituvchi nimani kuzatishi va kuzatishlari qanday talqin etilishi o'z oldiga qo'ygan maqsadi asosida amalga oshiriladi. Kuzatish orqali olingan natijalar qayd etiladi va kelgusidagi rejalashtirish jarayoniga taqdim etiladi.

Yuqoridagi bu ajralmas tarkibiy qismlar kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda foydalanib kelingan. Ammo biz pedagogik jarayonni tahlil qilmasak, natijalarni qayd etmasak, ko'zlagan maqsadimizga erishdikmi yoki yo'q kabi savolga javob topishda qiynalamiz. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan bu modelga qo'shimcha tarzda **natijalarni tahlil qilish** sifatini ham qo'shdik.



**Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini
rivojlantirish modeli.**

Bunda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik modeli endi to'rtta sifatda emas, balki beshta sifatda o'z aksini topadi.

Natijalarni tahlil qilish – hal etuvchi omil hisoblanadi. Bu jarayonda pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oldimi yoki yo'qmi?, - savoliga aniq javob topa oladi. Yuqoridagi shartlarga amal qilib, talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha olib borgan amallari natijasini tahlil qiladi. Natija ijobiy yoki salbiy bo'lsa ham muhim hisoblanadi. Ijobiy natijalar qayd etiladi va pedagog kelgusi faoliyatida undan bema'lol foydalanaveradi. Salbiy natijalar bo'lganda esa, xato va kamchiliklar sababi izlab topilib, bartaraf etiladi.

Bo'lajak tarbiyachilar kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda qo'llanma sifatida foydalaniladigan bu model davriy xarakterga ega bo'lib, doimiy ravishda takrorlanadi va bir tushuncha ikkinchisini uzviy ravishda tavsiflaydi. Kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishning asosiy sharti hisoblangan o'qitish mahorati yoki nazariy qism talabalarning faol bilim olishini qo'llab – quvvatlaydi. Nazariy bilim va kuzatishlar asosida o'qituvchi o'z o'qitish texnikasini tahlil qiladi, oqilona xulosalar chiqaradi va davomiy rivojlanish rejalarini tuzadi. Malakali pedagog doimiy ravishda pedagogik amaliyotni va uning talabalar bilimiga ta'sirini kuzatib boradi va fikr yuritadi. Kuzatish jarayonida, amaliyotga tatbiq etgan nazariy bilimlari samaradorligi bilan tanishadi. Chunki talabalar oliy ta'lim muassasasida olgan bilimlarini amaliyot jarayonida qo'llaydilar. Amaliyot jarayoni esa, har bir soha talabalarining kelgusidagi kasbiy faoliyatidan kelib chiqib belgilanadi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari o'z kasbiy faoliyatlarini Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davom ettiradilar. Ular amaliyotda bola va uning psixologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ta'lim jarayonidagi olgan nazariy bilimlarini, amaliy soha bilan birlashtiradilar.

Ana shu jarayonda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yayotganlarini va qanday metodik yordamga muhtoj ekanliklarini qayd etib boradilar. Qayd etilgan xolatdan shaxsiy xulosa yasaydilar va oliy ta'lim muassasasi pedagogi bilan ularni muhokama qiladilar. Pedagog shaxsiy kuzatuvlari asosida umumiy natijalarni tahlil qiladi va nazariy ta'lim berishdagi yo'l qo'ygan kamchiliklarini tuzatish uchun yangicha ta'lim va tarbiya berish dasturini rejalashtiradi.

Bo'lajak tarbiyachilarni kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan bu model oliy ta'lim muassasasi pedagog hodimlari va talabalari uchun ko'zlangan samaraga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov.N.A.,va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
2. Mahkamova M.Yu. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoref. T.: 2002.
3. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika.Darslik.Toshkent, 2018.
4. Kenjayeva D.,Shuhratova F. Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari. –T.: Fan, 2010.
5. Olsson, T., K. Martensson, and T. Roxa . 2010. “Pedagogical Competence A Development Perspective from Lund University.” In A Swedish Perspective on Pedagogical Competence, edited by A . Ryegard, K. Apelgren and T. Olsson, 121_132. Uppsala: Uppsala University, Division for Development of Teaching and Learning.